“SAMARKAND MARATHON” MUSOBAQASINING O‘TKAZILISH SANALARI: 2025-YIL 8- 9-NOYABR

Mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma, “tashkilotchi” deb yuritiladi) tomonidan jismoniy shaxslar manziliga qaratilgan ommaviy oferta shartnomasi hisoblanadi va ushbu shartnomaning predmeti bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha barcha muhim shartlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talablariga muvofiq, quyida keltirilgan shartlarni qabul qilish va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirish orqali ushbu ofertani aksept qilgan jismoniy shaxs “Samarkand Marathon 2025” xalqaro xayriya yugurish musobaqasining ishtirokchisiga (keyingi o‘rinlarda – “Samarkand Marathon 2025” ishtirokchisi) aylanadi. (Fuqarolik kodeksining 370–372-moddalariga muvofiq, ofertani aksept qilish – ofertada ko‘rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzilganligini anglatadi).

Shu tariqa, tashkilotchi va “Samarkand Marathon 2025” ishtirokchisi birgalikda – ommaviy oferta shartnomasining tomonlari hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, iltimos, ushbu ommaviy ofertaning barcha shartlari bilan diqqat bilan tanishing. Agar Siz ushbu shartnomaning biror bandiga rozi bo‘lmasangiz, tashkilotchi Sizga xizmatlardan foydalanmaslik huquqini beradi.

1. OFERTA SHARTNOMASINING PREDMETI

1.1. Ushbu hujjat ommaviy oferta hisoblanadi — Jamg‘arma tomonidan tashkil etilgan “Samarkand Marathon 2025” musobaqasida ishtirok etishni istagan shaxsga mazkur shartnomada belgilangan tartib va shartlar asosida Tadbirni tashkil etish va o‘tkazish xizmatlarini taqdim etishdan iborat bo‘lib, bu xizmatlar elektron ro‘yxatdan o‘tish xizmatlarini ham, boshqa tegishli xizmatlarni ham o‘z ichiga oladi.

1.2. Tomonlar quyidagiga kelishib oladilar: Tashkilotchi ob-havo yoki boshqa texnik sabablarga ko‘ra Tadbir o‘tkaziladigan joyni istalgan vaqtda o‘zgartirish huquqiga ega bo‘ladi, bunda masofalar parametrlari va Tadbir nomi saqlanib qoladi.

1.3. Tadbirni o‘tkazish bo‘yicha xizmatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Quyidagi masofalarga elektron ro‘yxatdan o‘tish xizmatlari:
- Marafon — 42 km 195 m;
- Yarim marafon — 21 km 97,5 m;
- 10 km yugurish;
- 5 km yugurish;
- 2 km yugurish;
- 2 km skandinav yurishi;
- 1000 m bolalar yugurishi;
- 600 m bolalar yugurishi;
- 300 m bolalar yugurishi;
- 60 m bolalar yugurishi;
- Tadbirni o‘tkazish bo‘yicha umumiy xizmatlar.

1.4. Ushbu shartnoma asosida taqdim etiladigan xizmatlar sifati uchun to‘liq javobgar shaxs — Tashkilotchi (Jamg‘arma) hisoblanadi.

2. SHARTNOMA TUZILGAN PAYT

2.1. Ushbu shartnoma matni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq, ommaviy oferta hisoblanadi.

2.2. Ofertani aksept qilish — bu ishtirokchining Tadbir shartnomasida bayon etilgan barcha shartlarni istisnosiz va cheklovlarsiz to‘liq qabul qilganligini bildiradi va yozma shartnoma tuzilganiga tenglashtiriladi.

2.3. Ofertani (ommaviy taklifni) qabul qilishqilish uchun Tadbir ishtirokchisi quyidagi ketma-ket harakatlarni amalga oshiradi:

2.3.1. Tadbirning rasmiy veb-sayti events.samarkandmarathon.uz orqali ushbu ommaviy oferta shartnomasi, Tadbir nizomi va boshqa axborotlar bilan tanishadi;

2.3.2. Tanlangan masofaga elektron ro‘yxatdan o‘tadi va ro‘yxatdan o‘tish badalining to‘lovini amalga oshiradi.

2.4. Ishtirokchining ro‘yxatdan o‘tish badalini to‘lashi ushbu shartnoma shartlarini to‘liq va so‘zsiz qabul qilganligini bildiradi (aksept hisoblanadi) va yozma shartnoma tuzilganiga tenglashtiriladi.

2.5. Ushbu shartnoma Tadbir ishtirokchisi va tashkilotchisi o‘rtasidagi rasmiy munosabatlar uchun asosiy hujjat hisoblanadi.

Tadbir ishtirokchisi ushbu shartnomaning barcha shartlari unga tushunarli ekanligini, ularni so‘zsiz va to‘liq hajmda qabul qilganligini kafolatlaydi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Tadbir ishtirokchisining huquqlari:

3.1.1. Quyidagi masofalarga elektron ro‘yxatdan o‘tish huquqiga ega:

- Marafon – 42 km 195 m
- Yarim marafon – 21 km 97,5 m
- 10 km yugurish
- 5 km yugurish
- 2 km yugurish
- Skandinavcha yurish – 2 km
- Bolalar yugurishi – 1000 m
- Bolalar yugurishi – 600 m
- Bolalar yugurishi – 300 m
- Bolalar yugurishi – 60 m

3.2. Tashkilotchining huquqlari:

3.2.1. Ishtirokchidan ushbu ommaviy oferta shartnomasi va Tadbir Nizomida keltirilgan barcha qoidalarga rioya qilishni talab qilish huquqiga ega.

3.2.2. Ishtirokchidan ro‘yxatdan o‘tish va ro‘yxatdan o‘tish badalini to‘lash jarayonida ushbu shartnoma shartlariga to‘liq rozilik bildirishini talab qilish huquqiga ega.

Agar ishtirokchi shartnoma shartlariga rozilik bildirmasa, tashkilotchi unga Tadbirda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tishga rad javobini berish huquqiga ega.

3.2.3. Hech qanday tovon puli to‘lanmasdan yoki javobgarliksiz ishtirokchining ishtirokidagi foto, audio va/yoki video materiallarni promorolik, reklama va boshqa nashrlarda – bosma mahsulotlarda, radio, televideniye, internet va boshqa axborot manbalarida, foydalanish muddati va hududiga cheklanmagan holda ishlatish huquqiga, shuningdek ushbu materiallarni tahrirlash va uchinchi shaxslarga topshirish huquqiga ega bo‘ladi.

3.2.4. Quyidagi holatlarda ishtirokchini Tadbirdan diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega:

ishtirokchi rasmiy start vaqtidan oldin yoki start yopilganidan keyin yugurishni boshlagan bo‘lsa;

- ishtirokchi harakatlanish uchun mexanik vositalardan foydalangan bo‘lsa;
- ishtirokchi Tadbir davomida nosportcha xatti-harakat qilgan bo‘lsa.
- Diskvalifikatsiya qilish qarorini Tadbir Tashkiliy qo‘mitasi qabul qiladi.

3.3. Tadbir ishtirokchisining majburiyatlari:

3.3. Ushbu shartnoma shartlariga rozilik bildirish. Agar rozilik bildirilmasa, ishtirokchining Tadbirga ro‘yxatdan o‘tishi amalga oshirilmaydi. Agar ishtirokchi ro‘yxatdan o‘tish badalini to‘lagan bo‘lsa, demak u ushbu shartnomaning barcha shartlarini qabul qilgan hisoblanadi.

3.3.1. Ushbu ommaviy oferta shartnomasi matni, Tadbir Nizomi va events.samarkandmarathon.uz saytida joylashtirilgan boshqa axborotlar bilan batafsil tanishish va ularning talablariga amal qilish.

3.3.2. Agar kerakli hujjatlar mazkur sayt orqali topilmasa yoki aniqlanmasa, tashkilotchiga murojaat qilish, va faqat ushbu hujjatlar bilan tanishgandan keyin ro‘yxatdan o‘tishga kirishish. Tashkilotchi ishtirokchining noto‘g‘ri tushunchasi yoki noto‘g‘ri talqini oqibatida amalga oshirilgan harakatlari uchun javobgar emas.

3.3.3. Tashkilotchi tomonidan taklif etilgan to‘lov usullari orqali ro‘yxatdan o‘tish badalini to‘liq hajmda to‘lash.

3.4. Tashkilotchining majburiyatlari:

3.4.1. Ishtirokchiga, ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, Tadbirga tanlangan masofa bo‘yicha elektron ro‘yxatdan o‘tish huquqini taqdim etish.

3.4.2. Ishtirokchi ushbu shartnoma shartlariga rozilik bildirgan taqdirda, ro‘yxatdan o‘tish badalini qabul qilish.

4. HISOB-KITOB TARTIBI

4.1. Tadbir ishtirokchisi ro‘yxatdan o‘tish badali va qayta ro‘yxatdan o‘tish xizmati uchun to‘lovni Visa International, MasterCard, Uzcard, Humo to‘lov tizimlari orqali bank kartalari yordamida amalga oshiradi.

4.2. Ro‘yxatdan o‘tish badali narxi O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so‘mda belgilanadi.

4.3. Ro‘yxatdan o‘tish badali uchun to‘lovlar, rasmiy ro‘yxatga olish boshlangan kundan boshlab 2025-yil 31-oktabr soat 23:59 gacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan taqdirda, Tashkilotchi quyidagi miqdorlarda ro‘yxatdan o‘tish badalini belgilaydi:

- Marafon – 42 km 195 m – 300 000 (uch yuz ming) so‘m

– Yarim marafon – 21 km 97,5 m – 300 000 (uch yuz ming) so‘m
– 10 km yugurish – 300 000 (uch yuz ming) so‘m
– 5 km yugurish – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m
– 2 km yugurish – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m
– Skandinavcha yurish – 2 km – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m
– Bolalar yugurishi – 1000 m – 200 000 (ikki yuz ming) so‘m
– Bolalar yugurishi – 600 m – 200 000 (ikki yuz ming) so‘m
– Bolalar yugurishi – 300 m – 200 000 (ikki yuz ming) so‘m
– Bolalar yugurishi – 60 m – 200 000 (ikki yuz ming) so‘m
– Tashkiliy qo‘mitaning qaroriga asosan, 2025-yil 7–8-noyabr kunlari qo‘shimcha ro‘yxatga olish ochilishi mumkin. Bunda ro‘yxatdan o‘tish badali quyidagicha bo‘ladi:
– Marafon – 42 km 195 m – 400 000 (to‘rt yuz ming) so‘m
– Yarim marafon – 21 km 97,5 m – 400 000 (to‘rt yuz ming) so‘m
– 10 km yugurish – 400 000 (to‘rt yuz ming) so‘m
– 5 km yugurish – 350 000 (uch yuz ellik ming) so‘m
– 2 km yugurish – 350 000 (uch yuz ellik ming) so‘m
– Skandinavcha yurish – 2 km – 350 000 (uch yuz ellik ming) so‘m
– Bolalar yugurishi – 1000 m – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m
– Bolalar yugurishi – 600 m – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m
– Bolalar yugurishi – 300 m – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m
– Bolalar yugurishi – 60 m – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m

4.4. Masofani o‘zgartirish faqat 2025-yil 24-oktabr soat 23:59 ga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Masofani o‘zgartirish uchun to‘lov – 50 000 (ellik ming) so‘mni tashkil etadi.

Masofani qisqaroq masofadan uzunroq masofaga o‘zgartirishda ishtirokchi mavjud slotlar narxlari orasidagi farqni to‘lashi lozim.

Masofani uzunroqdan qisqaroqqa o‘zgartirishda esa to‘lovdagi farq qaytarilmaydi.

Masofa faqat quyidagi shartlar bajarilganda almashtiriladi:

– tanlangan masofaga mos yosh cheklovlariga rioya qilingan bo‘lsa;
– tanlangan masofa uchun bo‘sh slotlar mavjud bo‘lsa.
– Masofani o‘zgartirishda avval berilgan start raqami bekor qilinadi va ishtirokchiga yangi masofaga mos raqam beriladi.
– Masofani o‘zgartirish uchun quyidagi manzillarga murojaat qilish lozim:
– Telegram: t.me/samarkandmarathon_support
– Elektron pochta: marathon@acdf.uz
– Murojaatlar navbat asosida qabul qilinadi va ko‘rib chiqish muddati 3 ish kunigacha cho‘zilishi mumkin.

5. ELEKTRON RO‘YXATDAN O‘TISH BO‘YICHA ALOHIDA QOIDALAR

5.1. Tadbirda ishtirokchi sifatida elektron ro‘yxatdan o‘tayotgan har bir ishtirokchi ro‘yxatga olish veb-shaklidagi barcha majburiy maydonlarni to‘ldirgan holda o‘zi haqidagi to‘liq ma’lumotni taqdim etishga majbur.

Agar ishtirokchi bu kabi ma’lumotlarni taqdim etmasa yoki yolg‘on yoki haqiqiy bo‘lmagan ma’lumot kiritsa, tashkilotchi ishtirokchini elektron ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etishga haqli.

5.2. Ishtirokchi yolg‘on yoki haqiqiy bo‘lmagan ma’lumotlarni taqdim etganligi uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olganini qabul qiladi va bunga rozi bo‘ladi.

6. TOMONLARNING MAS’ULIYATI

6.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va ushbu shartnoma shartlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

6.2. Tashkilotchi, ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan belgilangan talab va qoidalardan bexabarligi yoki ularni bajarmaganligi uchun javobgar emas.

6.3. Tashkilotchi, ushbu shartnoma va Tadbir nizomining shartlarini noto‘g‘ri tushunish yoki umuman tushunmaslik natijasida ishtirokchi tomonidan ko‘rilgan har qanday moddiy zarar yoki ma’naviy zararning oqibatlari uchun javobgar emas.

6.4. Tashkilotchi, Tadbir davomida ishtirokchiga va/yoki uning mol-mulkiga yetkazilgan zarar yoki talofatlar uchun, agar bu zarar Tashkilotchining beparvoligi yoki o‘z xizmat vazifalariga qasddan bepisand munosabati natijasida sodir bo‘lmagan bo‘lsa, javobgar emas.

6.5. Tashkilotchi, Tadbir davomida ishtirokchi va/yoki uning mol-mulkiga ular aybi bilan yuzaga kelgan qo‘shimcha holatlar natijasida yetkazilgan zarar yoki talofatlar uchun javobgar emas.

6.6. Tashkilotchi voyaga yetmagan ishtirokchilar uchun javobgar emas. Ota-onalar yoki vasiylar to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladilar.

6.7. Tadbirda ishtirok etish orqali ishtirokchi o‘zining yaxshi jismoniy holatda ekanligini va sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘ymaslik maqsadida muntazam ravishda tibbiy ko‘riklardan o‘tishini tasdiqlaydi. Shuningdek, u sog‘lig‘i bilan bog‘liq holda Tadbirda ishtirok etishga qarshi tibbiy yoki boshqa cheklovlari yo‘qligini, uzoq davom etuvchi jismoniy mashqlarga qarshi ko‘rsatmalar mavjud emasligini va Tadbirda ishtirok etish uchun sog‘ligi imkon berishini tasdiqlaydi. U mazkur shartni buzish bilan bog‘liq barcha xavflar va salbiy oqibatlar uchun shaxsan javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

6.8. Ishtirokchi Tadbir o‘tkaziladigan hududda amalda bo‘lgan karantin choralariga (agar mavjud bo‘lsa) rioya qilish uchun javobgardir. Agar Tadbirda ishtirok etish ushbu karantin choralari talablariga zid bo‘lsa, ishtirokchi Tadbirda qatnashishdan bosh tortishi shart.

7. TO‘SIQBOLMAS KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

7.1. Tomonlar, ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bunday

bajarmaslik to‘sib bo‘lmaydigan kuch holatlari (fors-major) natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa.

7.2. Fors-major holatlariga quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoitlari, harbiy harakatlar, pandemiyalar va epidemiyalar, umumdavlat miqyosidagi inqiroz, sanoat yoki hududiy darajadagi ish tashlashlar, davlat hokimiyati organlarining harakatlari va qarorlari, telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi nosozliklar, zararli dasturlar ta’siri, shuningdek, har ikki Tomonning dasturiy va/yoki texnik tizimlariga (masalan, to‘lov tizimlari va boshqalar) ruxsatsiz kirish yoki ularni ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning nohalol harakatlari.

8. MAXFIYLIK SIYOSATI

8.1. Saytda shaxsiy ma’lumotlarni qoldirgan holda, Tadbir ishtirokchisi Maxfiylik va ma’lumotlarni himoya qilish siyosatiga rozilik bildiradi.

8.2. Tadbir rasmiy veb-sayti — events.samarkandmarathon.uz — ma’muriyati, foydalanuvchi tomonidan ro‘yxatdan o‘tishda va sayt funksiyalaridan foydalanishda taqdim etilgan ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga bermaydi va oshkor etmaydi. Bu qoida faqat foydalanuvchi faoliyat yuritayotgan davlat qonunchiligida belgilangan holatlar bundan mustasno.

8.3. Saytda muloqot qilish uchun Tadbir ishtirokchisi ma’lum shaxsiy ma’lumotlarni kiritishi lozim. Taqdim etilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish maqsadida sayt onlayn yoki oflayn rejimda shaxsni tasdiqlovchi dalillarni talab qilish huquqini saqlab qoladi.

8.4. Sayt Tadbir ishtirokchisining shaxsiy ma’lumotlaridan xizmat ko‘rsatish va taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida foydalanadi. Ba’zi shaxsiy ma’lumotlar to‘lov tizimlari yoki banklarga taqdim etilishi mumkin, agar bu ma’lumotlarning berilishi foydalanuvchi foydalanmoqchi bo‘lgan to‘lov tizimlari orqali mablag‘ o‘tkazish tartibiga bog‘liq bo‘lsa. Sayt Tadbir ishtirokchisining shaxsiy ma’lumotlarini xavfsiz saqlash uchun barcha choralarni ko‘radi. Shaxsiy ma’lumotlar faqat amaldagi qonunchilikda belgilangan holatlarda yoki Sayt ma’muriyati bunday harakatlarni huquqiy tartibga, sud qaroriga yoki foydalanuvchining Saytdan foydalanish jarayonida qonuniy protseduralarga rioya qilish uchun zarur, deb hisoblagan hollarda oshkor qilinishi mumkin. Boshqa barcha holatlarda, ishtirokchi tomonidan Saytga taqdim etilgan ma’lumotlar uchinchi shaxslarga hech qanday sharoitda oshkor etilmaydi.

8.5. Tadbir ishtirokchisi ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng, u ro‘yxatdan o‘tish muvaffaqiyatli amalga oshirilgani haqida xabar oladi. Tadbir ishtirokchisi istalgan vaqtda Sayt orqali axborot byulletenlarini olishdan voz kechish huquqiga ega.

8.6. Saytda boshqa veb-saytlarga havolalar bo‘lishi mumkin. Sayt ushbu havola orqali ochiladigan saytlardagi kontent, sifat va xavfsizlik siyosati uchun javobgar emas. Ushbu Maxfiylik siyosati faqat bevosita Saytda joylashtirilgan ma’lumotlarga nisbatan amal qiladi.

8.7. Sayt foydalanuvchi akkauntini ruxsatsiz kirishlardan himoya qilishni ta’minlaydi.

8.8. Sayt ushbu Maxfiylik siyosatiga hech qanday qo‘shimcha ogohlantirishsiz o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Yangi o‘zgartirishlar Saytda e’lon qilingan paytdan e’tiboran kuchga kiradi. Tadbir ishtirokchilari ushbu siyosatdagi o‘zgarishlarni mustaqil ravishda kuzatib borishlari lozim.

9. SHARTNOMANI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

9.1. Ushbu shartnoma Tadbir ishtirokchisi tomonidan ro‘yxatdan o‘tilib, ro‘yxatdan o‘tish badali to‘langandan so‘ng kuchga kiradi.

9.2. Ushbu shartnoma bo‘yicha xizmat ishtirokchiga Tadbirda ishtirok etishini tasdiqlovchi xat yuborilgan yoki ishtirokchining shaxsiy kabinetida (events.samarkandmarathon.uz saytida) ushbu haqda xabar paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

9.3. Tashkilotchi ushbu shartnoma shartlarini ishtirokchilarni oldindan ogohlantirmasdan o‘zgartirish huquqiga ega.

9.4. Agar ushbu shartnomaga kiritilgan o‘zgartirishlarning kuchga kirish sanasi alohida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ular Tadbir saytida (events.samarkandmarathon.uz) e’lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

10. NIZOLARNI HAL QILISH

10.1. Ushbu Shartnoma bo‘yicha Tomonlar o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish davomida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar, birinchi navbatda, muzokaralar orqali, da’vo tartibida hal etiladi. Agar nizolarni hal qilish imkoni bo‘lmasa, Tomonlar o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun tashkilotchining joylashgan hududidagi sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi.

10.2. Qo‘llaniladigan huquq – O‘zbekiston Respublikasi huquqi.

11. TASHKILOTCHINING REKVIZITLARI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi
100029, Toshkent shahri, T. Shevchenko ko‘chasi, 1-uy
Hisob raqami: 20210000900813397003
Valyuta hisob raqami: 20210840100813397004
Bank: CHAKB “OCTO-bank” OPEUR bo‘limi
MFO: 00980
SWIFT kodi: RVBKUZ22
STIR (INN): 305122818
OKED: 84120
OKPO kodi: 27386654
Telefon: +99899 363 22 36
Elektron pochta: marathon@acdf.uz